

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK**M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova**

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiylar ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lif-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romançilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantic tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



УО'К: 81'42:81'37

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA NUTQIY ETIKETNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI**ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****LINGUISTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF SPEECH ETIQUETTE IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES****Kakharov Qobil Shuhrat o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis va o'zbek nutqiy etiketi o'ziga xosliklari lingvopragmatik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida nutqiy etiketning madaniy, ijtimoiy va tarixiy asoslari, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda o'mi o'r ganilgan. Nemis tillarida aniqlik va rasmiylik ustuvor ahamiyatga ega bo'lsa, o'zbek tillarida samimiyat va mehmondo'stlik asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo'ladi. Qiyoziy tahlil natijalari madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash va samarali muloqot yo'llarini taklif qilish uchun ilmiy tavsiyalarni taqdim etadi. Tadqiqot globallashuv sharoitida nutqiy etiketing ahamiyatini chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan.

Аннотация

В статье проведен лингвопрагматический анализ речевого этикета в немецкой и узбекской культурах. Исследование рассматривает культурные, социальные и исторические аспекты речевого этикета, а также его роль в межкультурной коммуникации. В немецкой культуре доминируют точность и официальность, в то время как узбекская культура характеризуется искренностью и гостеприимством. Результаты сравнительного анализа предстаивают научные рекомендации для укрепления межкультурных связей и эффективной коммуникации. Исследование направлено на углубление понимания важности речевого этикета в условиях глобализации.

Abstract

This article presents a linguo-pragmatic analysis of speech etiquette in German and Uzbek cultures. The study examines the cultural, social, and historical foundations of speech etiquette and its role in intercultural communication. Precision and formality dominate German culture, whereas sincerity and hospitality are key principles of Uzbek culture. The results of the comparative analysis offer scientific recommendations for strengthening intercultural connections and enhancing effective communication. The research aims to deepen the understanding of the importance of speech etiquette in the context of globalization.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, lingvopragmatik tahlil, madaniyatlararo muloqot, nemis madaniyati, o'zbek madaniyati, rasmiylik va samimiyat, globallashuv, mehmondo'stlik, kommunikativ qiyinchiliklar.

Ключевые слова: речевой этикет, лингвопрагматический анализ, межкультурная коммуникация, немецкая культура, узбекская культура, официальность и искренность, глобализация, сравнительный лингвистический анализ, гостеприимство, коммуникативные трудности.

Key words: speech etiquette, linguo-pragmatic analysis, intercultural communication, german culture, uzbek culture, formality and sincerity, globalization, comparative linguistic analysis, hospitality, communicative challenges.

KIRISH

Jamiyatlararo muloqot va madaniy aloqalarda nutqiy etiket insonlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning muhim elementi hisoblanadi. Nutqiy etiket nafaqat ijtimoiy munosabatlarning me'yorlarini belgilab beradi, balki milliy madaniyat, qadriyatlar va urf-odatlar bilan uzviy bog'liqidir. Xususan, nemis jamiyatida nutqiy etiketning shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixga ega bo'lib, bu soha tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi turli fanlarning tadqiqot obyektiga aylangan.

Nutqiy etiketning ahamiyati birinchi navbatda odamlar o'rtasida samimiylilik va hurmatni shakllantirishda namoyon bo'ladi.[3.234] Ushbu tadqiqot nemis nutqiy etiketining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga, uning o'zbek madaniyati bilan qiyosiy jihatdan o'xshashlik va farqlarini

tahlil qilishga qaratilgan. Nemis madaniyatida nutqiy etiket qoidalari insonlar o'rtasida muloqotni soddalashtirish, bir-birini tushunish va madaniy hurmatni oshirishga xizmat qilgan.

Nemis nutqiy etiketi asosan til birliklari orqali amalga oshiriladi va bu jarayon madaniy qadriyatlarning uzviy qismi sifatida qaraladi. Ushbu qoidalalar nafaqat kundalik muloqotda, balki rasmiy uchrashuvlar va xalqaro munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarixiy jihatdan nemis madaniyatida odob-axloq qoidalari va nutqiy etiket qoidalarinining rivoji ilmiy tadqiqotlar bilan chuqur bog'liq bo'lib kelgan.[1.67] XIX asrda nemis madaniyatshunosi Adolf Freiherr von Kniggening "Über den Umgang mit Menschen" (Insonlar bilan muloqot qilish haqida) asari ushbu yo'nalishdagi ilk tadqiqotlardan biri hisoblanadi.[5.395]

Ushbu maqolaning maqsadi – nemis nutqiy etiketining o'ziga xosliklarini aniqlash va o'zbek nutqiy etiketi bilan qiyoslash orqali madaniyatlararo muloqotning samaradorligini oshirishga oid ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishdir. Tadqiqot natijalari nemis va o'zbek madaniyati o'rtasidagi madaniy muloqot va integratsiyaga hissa qo'shishga qaratilgan bo'lib, bu sohadagi ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda nutqiy etiketni qiyosiy tahlil qilishga asoslangan ilmiy yondashuvlar qo'llanildi. Metodologiya quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Tadqiqotda nemis va o'zbek madaniyatlari hamda nutqiy etiketi bo'yicha mavjud ilmiy manbalar, jumladan, kitoblar, maqolalar va tadqiqot hisobotlari chuqur o'rganildi. Xususan, quyidagi manbalar asosiy ilmiy ma'lumot manbalari sifatida qo'llanildi:

Nemis va o'zbek madaniyatlariga oid nutqiy etiket qoidalari qiyosiy ravishda tahlil qilindi. Bunda nutqiy etiketning o'xshashlik va farqlari, ularning ijtimoiy-madaniy muhitdagi ahamiyati, hamda kundalik muloqotdagi o'rni o'rganildi. Qiyosiy tahlilda birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar birgalikda qo'llanildi. Nemis va o'zbek tillarida ishlatiladigan nutqiy etiket birliklari, jumladan, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash kabi muloqot shakllari tahlil qilindi. Lingvistik tahlil jarayonida frazeologik birliklar, nutqiy shakllar va ularning pragmatik funksiyalari aniqlab berildi.

Guten Tag! (Xayrli kun!)

Guten Abend! (Xayrli kech!)

Grüß Gott! (Xudoning salomi bo'lsin!) – Janubiy Germaniya va Avstriyada.

Salomlashuv va tilaklar orasidagi asosiy farq shundaki, salomlashuvlarga odatda faqat bir xil javob beriladi:

"*Guten Morgen!*" – "*Guten Morgen!*" Tilaklarga esa minnatdorchilik bildiriladi va ko'pincha javob tilaklar bilan qaytariladi:

"*Einen schönen Tag noch!*" (*Kuningiz xayrli bo'lsin!*) – "*Danke, Ihnen auch!*" (Rahmat, sizga ham!).

So'nggi vaqtarda nemis tilidagi salomlashuvlar ijobiy tilaklar bilan birga qo'llash tendensiyasi kuchaymoqda. Masalan:

(Ein) Schönes Wochenende! (Yaxshi dam olish kunlarini tilayman!)

(Einen) Schönen Tag noch! (Yaxshi kun tilayman!)

Tadqiqot davomida madaniy muloqot jarayonlarida nutqiy etiketning ahamiyatini o'rganish uchun amaliy kuzatuvlar olib borildi. Nemis va o'zbek jamiyatlarida etiketga oid madaniy xattiharakatlar kuzatildi va tahlil qilindi. Shu bilan birga, madaniyatlararo muhitda paydo bo'ladigan kommunikativ qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganildi.

Tadqiqot davomida nemis va o'zbek madaniyatidagi muayyan vaziyatlarda nutqiy etiketni qo'llash bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Natijalar real muloqot jarayonidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini berdi.

Mazkur metodlar yordamida nemis nutqiy etiketi va uning o'zbek madaniyati bilan bog'liq jihatlari haqida to'liq va asosli tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotda qiyosiy yondashuv va lingvistik tahlil birgalikda qo'llanilgani natijasida madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiketning o'rni va ahamiyati kengroq yoritib berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari nemis va o'zbek xalqlarining nutqiy etiketi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularning ijtimoiy muloqotdagi o'rnini va madaniy xususiyatlarini tahlil qilishda yangi

TILSHUNOSLIK

yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Natijalar quyidagicha kengaytirilgan xulosalarni bayon qilish imkonini berdi:

Nemis va o'zbek nutqiy etiketining asosiy farqlari ushbu xalqlarning madaniyati, tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy qadriyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Nemis madaniyatida: *aniqlik va qat'iylik* asosiy tamoyillar sifatida e'tirof etilib, muloqot rasmiy qoidalarga qat'iy riosa qilgan holda amalga oshiriladi. [3.124] Nemis nutqiy etiketida vaqt ni qadrlash va belgilangan vaqt da muloqot qilish o'ta muhim hisoblanadi. Hurmat va masofa saqlash madaniy qadriyat sifatida ajralib turadi. Bu, ayniqsa, professional muloqotda ham, ijtimoiy muloqotda ham kuzatiladi. O'zbek madaniyati esa, *samimiyat va mehmono'stlikka* asoslangan bo'lib, muloqotda insoniy yaqinlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi. Suhbat an'ana va urf-odatlarga asoslangan bo'lib, ular muloqotda milliy qadriyatlarining yaqqol aks etishiga xizmat qiladi. Masalan, mehmonni iliq qarshi olish, unga e'tibor va izzat ko'rsatish o'zbek nutqiy etiketi va madaniyatining ajralmas qismidir.

Nemis va o'zbek xalqlarining nutqiy etiketida quyidagi asosiy farqlar aniqlandi:

Rasmiylik darajasi: Nemis madaniyatida muloqotning rasmiy qoidalari qat'iy saqlansa, o'zbek madaniyatida norasmiylik va samimiyat muloqotning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Vaqtga munosabat: Nemislardan uchun vaqt ni qadrlash va o'z vaqtida harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbeklarda esa mehmono'stlikda asosiy e'tibor insoniy munosabatlarga qaratilib, vaqt omiliga nisbatan erkin yondashuv ustun turadi.

Hurmat va e'tibor ko'rsatish usullari: Nemis etiketida rasmiy nutq qoidalari orqali hurmat ko'rsatiladi. O'zbek madaniyatida esa insoniy ilqlik va bag'rikenglik orqali hurmat ifodalanadi.

Nemis va o'zbek jamiyatida nutqiy etiket ijtimoiy muloqotning muhim omili sifatida alohida o'rinni tutadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nemis madaniyatida nutqiy etiket jamiyatning ijtimoiy tartibini saqlashga xizmat qiladi. Masalan, rasmiy tadbirda yozma va og'zaki takliflarning qat'iy qoidalarga riosa qilinishi, tadbiriga o'z vaqtida kelish va mehmonlarning har biriga individual hurmat ko'rsatish orqali ijtimoiy uyg'unlik ta'minlanadi. O'zbek madaniyatida nutqiy etiket insoniy qadriyatlar va samimiy munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mehmonlarni iliq qarshi olish, dasturxonga borini tortish, ochiq chehra bilan xizmat ko'rsatish kabi qoidalari o'zbeklarning milliy muloqot madaniyatini yuksaltiradi.

Bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiketing o'rni tobora ortib bormoqda. Tadqiqot natijalari ko'ra madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan nutqiy etiket qoidalariiga riosa qilishga bog'liq. Nemis va o'zbek madaniyatları o'rtaşıdagı muloqotda vaqtga munosabat, rasmiy va norasmiy nutq uslublari, hurmat ko'rsatish usullari o'zaro tushunishni ta'minlashda hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Nutqiy farqlarni o'rganish va ularga moslashish madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirish imkonini beradi.[2.176] Masalan, nemis madaniyatida o'z vaqtida kelish va qat'iy nutqiy qoidalarga riosa qilish, o'zbek madaniyatida esa samimiyat va mehmono'stlikni qadrlash madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Nemis nutqiy etiketi yuqori darajada standartlashtirilgan bo'lib, til va madaniyat o'rtaşıdagı bog'liqlikni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.[3.79] O'zbek nutqiy etiketi esa milliy an'ana va urf-odatlar bilan uyg'unlashgan bo'lib, insoniy qadriyatlar va muloqotda samimiylikni asosiy tamoyil sifatida aks etadi.

Nemis etiketi madaniyatlararo biznes aloqalar, ilmiy va diplomatik muloqotda anqlik va ishonchlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbek etiketi esa shaxslararo va norasmiy muloqotda ijtimoiy yaqinlikni oshiruvchi tamoyil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.[1.46]

Nemis va o'zbek nutqiy etiketi o'rtaşıdagı uzviy bog'liqlik, farq va o'xshashliklar ushbu xalqlarning madaniyati, ijtimoiy qadriyatlari va tarixiy rivojlanishiga chambarchas bog'langan. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiket qoidalariiga riosa qilish global muhitda o'zaro tushunish va uyg'unlikni ta'minlashning muhim omillardan biridir. Shu bilan birga, o'zga madaniyatning nutqiy qoidalari o'rganish va ularga hurmat bilan yondashish xalqlar o'rtaşıdagı ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiketing nazariy asoslarini yanada chuqurroq o'rganish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu natijalar xalqaro aloqalarda samarali muloqotni rivojlantirish, til va madaniyatlararo farqlarni anglashda qimmatli ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Nemis va o'zbek xalqlari orasida nutqiy etiketning madaniyati, tarixiy rivojlanishi va kundalik muloqotdagi roli sezilarli darajada farq qiladi. Nemis nutqiy etiketida rasmiylik, intizom va aniqlik asosiy o'rinn tutsa, o'zbek nutqiy etiketida samimiylilik, mehmondo'stlik va ochiqko'ngilllik qadrlanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida nutqiy etiket qoidalarini bilish va ularga rioya qilish madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Nemis va o'zbek nutqiy etiket qoidalarini o'rganish ushbu xalqlar o'rtasidagi madaniy tushunishni mustahkamlash imkonini beradi.

Nemis va o'zbek nutqiy etiketining nazariy jihatlarini qiyosiy o'rganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik va sotsiologiya sohalarida yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy jihatdan esa bu bilim xalqaro muloqot va biznes aloqalarida muvaffaqiyatli aloqa o'rnatish uchun zarurdir.

Nemis jamiyatida vaqtga bo'lgan hurmat va intizom muloqotning asosiy elementi bo'lsa, o'zbek xalqida mehmondo'stlik, iltifot ko'rsatish va samimiylilik yuqori darajada qadrlanadi. Bu milliy o'ziga xosliklar har ikki xalqning ijtimoiy muloqotida muhim o'rinn tutadi.[2.124]

O'zaro muloqotning sifatini oshirish uchun nemis va o'zbek nutqiy etiket qoidalarini chuquroq o'rganish va boshqa madaniyatlarning nutqiy xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Bu turli xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytiradi.

Nemis va o'zbek nutqiy etiketining nazariy va amaliy jihatlari ta'lif tizimida, ayniqsa, chet tillarni o'rganish jarayonida qo'llanilishi lozim. Bu til o'rganayotgan shaxslarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini oshiradi.

Nutqiy etiket va uning madaniy farqlari bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish, turli yosh guruhlari, ijtimoiy qatlamlar va muloqot vaziyatlariga doir amaliy kuzatuvlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Xalqaro biznes, ta'lif va boshqa sohalarda nemis va o'zbek etiket qoidalarini o'rgatishga qaratilgan maxsus trening va seminarlarni tashkil qilish muloqot samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Madaniy almashinuv dasturlari orqali nemis va o'zbek xalqlari o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlash va madaniy an'analarni keng targ'ib etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bierwisch M. Psychologische Aspekte der Sprache. Zentralinstitut für Sprachwissenschaft. – Berlin, 1975.
2. Bolten, Jürgen. Interkulturelle Kompetenz. Erfurt: Landeszentrale für Politische Bildung, 2001. – S.124
3. Knigge A. Über den Umgang mit Menschen. – Hannover, 2018. – S.395.
4. Mo'minov S. Muloqot mezoni. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2004. – B. 96.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: HIOL-NASHR, 2018. – 101 b.
6. Гумбольдт В. Избранные труды по языкоznанию. – Москва: Прогресс, 2000. – 400 c.